

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Saparbaeva Gulshad Usenovna

Nukus davlat pedagogika instituti pedagogika yunalishi 1- bosqish magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15674493>

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim nima ekanligi uning mazmuni, maqsadi va tamoyillari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishda inklyuziv ta'limning o'rni va uning tasiri yoritilgan. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishda inklyuziv ta'limga tayyorlashda pedagogik, psixologik, va ijtimoiy kompetentliklarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetentlik, psixologik kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik.

DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN INCLUSIVE EDUCATION SETTINGS

Abstract. This article discusses what inclusive education is, its content, goals and principles, the role of inclusive education in developing the professional competencies of future teachers, and its impact. In developing the professional competencies of future teachers, special attention is paid to the development of pedagogical, psychological and social competencies in preparing them for inclusive education.

Keywords: Inclusive education, professional competence, pedagogical competence, psychological competence, social competence.

KIRISH

Buguni kunda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar inklyuziv ta'limni joriy etishga qaratilgan.

Inklyuziv ta'lim – barcha bolalarga ularning qobiliyatida qat'iy nazar, talim olish imkoniyatini yaratish tamoyili. O'qituvchilar inklyuziv ta'lim tizimida o'quvchilarning har xil ehtiyojlarini qondirishda muhim ro'l o'ynaydi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentliklarini rivojlantirish, ularni inklyuziv ta'lim sharoitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlash dolzarb vazifalardan biridir. Bu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishda inklyuziv ta'limning o'rni va uning ta'siri tahlil qilinadi.

Inklyuzivlik inglizcha so'z bo'lib, **inclusif**-qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi.

Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitishni nazarda tutadi.

➤ Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir.[1.47]

➤ Inklyuziv ta'lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarni sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qitishni anglatadi. Inklyuziv ta'lim bir qator muhim tamoyillarga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Jumladan:

- Inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog'liq emasligi prinsipi;
- Har bir shaxsning his qilish va o'ylash layoqatiga egaligi prinsipi;
- Har bir shaxsning muloqat qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;
- Har bir shaxsning bir-biriga kerakligi prinsipi;

➤ Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi;

➤ Har bir o'quvchining o'z tengdoshlarining qo'llab-quvvatlovi va do'stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi;

➤ Turli tumanlik o'quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta'minlashi zarurligi prinsipi kabilar.[2.9]

Inklyuziv ta'lim tizimining barcha o'quvchilarni teng va adolatli ravishda qamrab olinishi ta'minlashni maqsad qiladi. Bu tamoyillarga asoslanib, o'qituvchilar har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olib, ta'lim jarayonini tashkil etishi kerak. Inklyuziv ta'limda barcha o'quvchilarga bir xil imkoniyatlar taqdim etiladi, shu jumladan o'ziga xos ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarga.

Inklyuziv ta'limning maqsadi –alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan xolda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta'lim berishni taminlashdan iborat.[3]

1. Kasbiy kompetentliklar: Nima uchun zarur?

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi, ularning bilimlari, ko'nikmalarini va malakalari o'z ishiga oladi. Bu kompetentliklar o'quvchining ta'lim jarayonini samarali tashkil eta olishiga, o'quvchilarni rivojlantirishda individual yondashuvlarni qo'llashiga va o'quvchilarning barcha ehtiyojlarini inobatga olishga yordam beradi. Inklyuziv ta'lim sharoitida o'qituvchilar o'quvchilarning turli xususiyatlarini hisobga olib, ta'lim jarayonini moslashtirishni bilishi kerak.

Kasbiy kompetentliklar quyidagi yonalishlarda rivojlanishi zarur:

- Pedagogik kompetentlik: Inklyuziv ta'limda ishlash uchun pedagogik bilimlarga ega bo'lish zarur. O'qituvchilar o'quvchilarning o'qishdagi qiyinchiliklarini aniqlay olishlari va ularning moslashgan ta'lim usullarini qo'llashlari kerak.

- Psixologik kompetentlik: O'qituvchilar o'quvchilarning psixologik ehtiyojlarini tushunishi va ularning individual yondashuvlarini ta'minlashi lozim. Bu, ayniqsa, maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun muhimdir.

- Ijtimoiy kompetentlik: O'qituvchilar sinfda o'quvchilarning ijtimoiy o'z-aro munosabatlarini boshqarish va ularni jamoaviy ishga jalb etish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak.

Bu kompetentlik inklyuziv ta'limda sinf muhitining barqarorligini ta'minlashda katta ro'l o'ynaydi.

2. O'qituvchilarning inklyuziv ta'limga tayyorlanishi

Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlash uchun quyidagi yunalishlar malaka oshirishi zarur:

- Ta'lim dasturlari va kurslar: Talim dasturida inklyuziv talim tamoyillarini o'z ishiga olgan kurslar tashkil etilishi kerak. O'qituvchilarni inklyuziv ta'lim metodikalar, o'quvchilarni individual ravishda baholash va ularning ehtiyojlarini inobatga olish bo'yicha o'qitish muhim ahamiyatga ega.

- **Praktik tajriba:** O'qituvchilarni amaliy tajriba bilan taminlash, masalan, maxsus ehtiyojlarga ega o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, ularning kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishda samarali vositadir.

- **Xalqaro tajribalar:** Inklyuziv ta'lim sohasida ilg'or xalqaro tajribalardan foydalanish, bo'lajak o'qituvchilarni turli madaniyatlarda ishlashga tayyorlashga yordam beradi. Xalqaro miqyosda inklyuziv talimning samarali usullari va metodikalarini o'rganish o'qituvchilarga ko'proq imkoniyatlar yaratadi.

3. O'qituvchilarning ro'lini kengaytirish

Inklyuziv ta'limda o'qituvchilar nafaqat bilim beruvchi sifatida, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishni taminlovchi motivator sifatida ham faoliyat yuritadilar. Ularning ro'li kengayadi, chunki ular o'quvchilarning faqat akademik emas, balki psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini ham qondirishlari zarur. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligi o'zgaruvchan muhitda ham samarali ishlashga imkon yaratadi.

4. Xulosa

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentliklarini rivojlantirish inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim tizimining muvaffaqiyatli ishlashiga xizmat qiladi. O'qituvchilar nafaqat o'quvchilarga bilim berishda, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam berishda ham muhim ro'l oynaydi. Shuning uchun, bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda pedagogik, psixologik, va ijtimoiy kompetentliklarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu o'zgarishlar ta'lim tizimining barqaror va samarali ishlashini taminlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Pedagogik atamalar lug'ati –T.: "Fan" 2008-B.47
2. Inklyuziv talim Darslik F.U.Qodirova, D.A.Pulatova –Toshkent:Mehr-nuri nashriyoti, 2024-b.240
3. Umumiy o'rta talim tashkilotlarida inklyuziv talimni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom-T vazirlar mahkamasining 638-son qarori ilovasi, 2021